



UO'K: 378.147:37.041:37.013

**BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINING MAXSUS
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH****ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО
ФОРМИРОВАНИЮ СПЕЦИФИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ****ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATIONAL WORK ON THE FORMATION OF
SPECIFIC COMPETENCIES OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION****Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna** 

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish asosida mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi yoritilgan bo'lib, talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda maxsus kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida mustaqil ish eng samarali shakllardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etishi bayon etilgan. Talabaniq mustaqil ishi – o'quv jarayonidan tashqari, belgilangan topshiriqlarni mustaqil ravishda izlash, bajarish va tayyorlash jarayonidir. Bu jarayon davomida talaba maxsus bilim, ko'nikma hamda malakalarni o'z kuchi bilan shakllantiradi. Mustaqil ta'lim, ayniqsa, doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish va yangiliklarga moslashish zarurati mavjud bugungi kun pedagoglari uchun muhimligi ta'kidlangan. Integrativ yondashuv negizida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yish algoritmi, ishlab chiqilib, talabaniq ilgari egallagan bilim darajasi, mavjud ko'nikmalari hamda berilgan yo'naltiruvchi ko'rsatmalarga bog'liq holda shakllanishi ko'rsatilgan.

Аннотация

В статье рассматривается методика организационной самостоятельной образовательной деятельности, направленная на формирование специальных компетенций будущих учителей технологического образования. Отмечается, что самостоятельная работа как одна из наиболее эффективных форм формирования специальных компетенций при организационной самостоятельной образовательной деятельности студентов имеет особое значение. Самостоятельная работа студента – это процесс самостоятельного поиска, выполнения и подготовки поставленных задач, дополняющий учебный процесс. В ходе этого процесса студент самостоятельно формирует специальные знания, умения и навыки, приобретая квалификацию. Подчеркивается, что самостоятельная образовательная деятельность особенно важна для современных учителей, которым необходимо постоянное самосовершенствование и адаптация к инновациям. На основе интегративного подхода разработан алгоритм организационной самостоятельной деятельности будущих учителей технологического образования и показано ее формирование в зависимости от ранее приобретенного уровня знаний студента, имеющихся у него умений и навыков, а также заданных ориентиров.

Abstract

The article discusses the methodology for organizing independent education based on the formation of special competencies of future teachers of technological education, and it is stated that independent work is of particular importance as one of the most effective forms in the process of forming special competencies in organizing independent education of students. Independent work of a student is a process of independent search, execution and preparation of assigned tasks, in addition to the educational process. During this process, the student forms special knowledge, skills and qualifications on his own. It is emphasized that independent education is especially important for today's teachers, who need constant self-development and adaptation to innovations. Based on an integrative approach, an algorithm for establishing independent activity of future teachers of technological education has been developed, and its formation is shown depending on the student's previously acquired level of knowledge, existing skills, and the given guidelines.

Kalit so'zlar: maxsus kompetensiya, kompetentlik, pedagogik dizayn, maxsus fanlar, integratsiya, kasbiy faoliyat, integrativ yondashuv.

Ключевые слова: специальная компетентность, компетентность, педагогическое проектирование, специальные предметы, интеграция, профессиональная деятельность, интегративный подход.

Key words: special competence, competence, pedagogical design, special subjects, integration, professional activity, integrative approach.

KIRISH

Jahonda globallashuv va integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan davrda texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorlanishini ta'minlash uchun ularning kompetensiyalarini shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Shu munosabat bilan oliy ta'lim dasturlarini YUNESKO tomonidan qabul qilingan "Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi" (TXSK-2011) va "TXKS: Ta'lim va kasbiy tayyorlash sohalari" (TXKS-S-2013) talablariga moslashtirish; ta'lim jarayoniga Milliy kvalifikatsiyalar tizimini joriy etish; yo'nalishlar va mutaxassisliklarga oid malaka talablarini kasb standartlari asosida ishlab chiqish hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda.[1] Yangi ta'lim paradigmalariga o'tish nafaqat texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini yuksaltirishni, balki ta'lim jarayonini ta'minlovchi metodologik asoslarni takomillashtirishni ham talab qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi kunda talabalarning mustaqil o'quv faolligini rivojlantirishda ularning mustaqil o'quv faoliyatini tizimli asosda samarali tashkil etish va boshqarish muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Talabalarning ijodiy tayyorgarlik jarayonida mustaqil ta'limning uzluksiz va uzviy amalga oshirilishi zarur. Bizningcha, bu yo'nalishda yuqori natijalarga erishish uchun ta'lim jarayonida, xususan ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarida, talabalarda o'rganilgan o'quv materialini mustahkamlashga qiziqish uyg'otish muhimdir. Bu, o'z navbatida, darslik va qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil ravishda o'qish ishtiyoqini shakllantirishga asoslanadi.

"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"[2] da mamlakatimizning kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro nufuzga ega Quacquarelli Symonds World University Rankings, Academic Ranking of World Universities yoki Times Higher Education kabi tashkilotlar reytingida eng yaxshi 1000 ta oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish, shuningdek, mazkur muassasalarda o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish vazifalari belgilangan.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish, mutaxassislik fanlaridan kiyimlarni loyihalash va modellashtirish bo'yicha ta'lim metodikasi sohasida bir nechta muhim tadqiqotlar mavjud. Xususan, Gulnora Jumayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlar talabalarga kiyim dizayni asoslarini o'rgatishda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv aloqaning ahamiyatini ta'kidlaydi. "Ta'limni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati" esa, o'z navbatida, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida talabalarga amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda innovatsion texnikalarni qo'llash imkoniyatlarini o'rganadi. "Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati va nazariy asoslari" nomli tadqiqotda esa zamonaviy axborot texnologiyalarining modellashtirishda foydalanish usullari batafsil ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, kiyimlarni loyihalashda dizayn va modellashtirishning metodologik jihatlari bo'yicha yangi adabiyotlar ham mavjud. "Ta'lim jarayonida innovatsion axborot texnologiyalari" asarida talabalarning loyihalash jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish muhimligi ta'kidlanadi, bu esa kiyim dizayni bo'yicha chuqur bilimlarni shakllantirishga yordam beradi [3, 4].

Q.M.Abdullayeva tadqiqot ishlarida kasb ta'limi bo'lajak o'qituvchilarining maxsus fanlar bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari mazmuni ilmiy tadqiq qilingan, tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirishni dizayn elementlari bilan bog'lab amalga oshirish metodikasi ishlab chiqilgan [5].

N.N.Karimovanning ilmiy tadqiqot ishida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi mazmuni hamda uni rivojlantirish muammolari o'rganilgan bo'lib, Dizayn (kostyum) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi tarkibiy tuzilmasi, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining integrativ mashg'ulotlari (fashion illustration, casual) asosida talabalarning ijodiy-yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan [6].

S.Yu.Rajabovanning ilmiy tadqiqot ishida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining konstruktorlik-texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi o'rganilgan bo'lib, effective practical result, team creative collections va buddying kabi interfaol ta'lim metodlarining samarali imkoniyatlaridan foydalanish orqali umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan amaliy ta'limni tashkil etish

metodikasi takomillashtirilgan. Shu bilan bir qatorda, innovatsion xarakterli ijodiy loyiha, for-ekskiz, kombinatorika, dekonstruksiya, andozani gradatsiyalash, eskizni stilizatsiyalash va transformatsiyalash topshiriqlarini bajarish bosqichlari kasbiy ehtiyojlar va ish beruvchilar talablarini maksimal darajada qanoatlantirishga yo'naltirilgan. Bu metodikalar "Autodesk Sketchbook", "NanoCAD", "Marvelous Designer" kabi kompyuter dasturlaridan foydalanish orqali ishlab chiqilgan [7].

A.F.Umarova ilmiy tadqiqot ishida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining loyixalash va modellashtirish va kiyim dizayni sohasidagi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi, AKT savodxonligi zamonaviy texnologik taraqqiyotning talablari yetarlicha javob bermasligi, mazkur muammo bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish va ulardan amaliyotda o'quv mashg'ulotlarining tarkibi, shakllari, usullarini takomillashtirish metodikalari ishlab chiqilgan.[8]

NATIJA VA MUHOKAMA

Bo'lajak mutaxassislarning har tomonlama yetuk, chuqur bilimli, mustaqil fikrlaydigan va izlanishlarga moyil kadrlar sifatida kamol topishlari uchun, ularni mustaqil ishlashga rag'batlantiruvchi ilg'or pedagogik hamda axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida joriy etish katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, talabalarda mustaqil ta'lim olishga qiziqish va zaruriyat uyg'otishda pedagogik texnologiyalar keng imkoniyatlarga ega.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga integrativ yondashuv, ya'ni o'quv jarayonini ishlab chiqarish jarayoni bilan integratsiyalash orqali maxsus kompetentlikni rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Ta'lim jarayonini loyihalash va loyihalangan pedagogik texnologiyani amaliyotga tadbiiq etish o'qituvchidan maxsus kompetentlik talab qiladi. O'rganishlar davomida, "talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiya" tamoyili asosida, talabalarining mustaqil o'quv faoliyatini kuchaytirish uchun quyidagi pedagogik texnologiyalar qo'llanildi.

Mustaqil ta'lim olish texnologiyasi o'quv-tarbiya jarayonining asosiga tayanadi. Optimal o'quv jarayonida mustaqillik, erkinlik va ijodkorlik sifatleri yaxshi rivojlanishi lozim, bunda muhim intellektual ko'nikmalar, xususan, mustaqil o'qish ko'nikmasi shakllanadi. Har bir ta'lim oluvchi mustaqil ta'lim materiallaridan samarali foydalana olmasligi mumkin. Shu sababli, o'qituvchi uchun mas'uliyatli vazifa paydo bo'ladi: qisqa muddat ichida ta'lim oluvchiga dars mazmuni va vazifalarni mustaqil tushunish, kerakli axborotni tanlash, baholash, taqqoslash, tahlil etish va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini o'rgatish zarur.

Mustaqil ta'lim texnologiyasini yaratishda bir qancha muammolarni hal etish talab etiladi. Bular ichida ta'lim maqsadini aniq qo'yish muammosi alohida o'rin tutadi. Agar ta'lim umumiy rivojlanishni ta'minlasa, mustaqil ta'limning maqsadi talabalarining professional shakllanishi va kasbiy mahoratini oshirishdir. Shu asosda talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish va boshqarish quyidagi texnologik asoslar asosida amalga oshiriladi:

1. Mustaqil ish topshiriqlarini tayyorlash: Kafedra o'qituvchilari har bir guruh uchun maxsus topshiriqlarni tayyorlaydi va nazorat qilish jadvalini ishlab chiqadi.

2. Yo'naltiruvchi tadbirlar o'tkazish: Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarni mustaqil ta'limga yo'naltirish ishlari olib boriladi. Ta'lim yo'nalishidagi o'quv rejasiga muvofiq fanning mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soatlari va o'quv dasturi asosida mavzular taqsimot jadvali tuziladi.

3. Mustaqil ta'lim materiallari tayyorlaydi va nazorat qilish jadvalini ishlab chiqadi.

2. Yo'naltiruvchi tadbirlar o'tkazish: ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarni mustaqil ta'limga yo'naltirish ishlari olib boriladi. Ta'lim yo'nalishidagi o'quv rejasiga muvofiq fanning mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soatlari va o'quv dasturi asosida mavzular taqsimot jadvali tuziladi.

3. Mustaqil ta'lim materiallari va topshiriqlar: O'zlashtirilgan mavzularga mos mustaqil ta'lim materiallari ishlab chiqilib, talabalar uchun mustaqil ish topshiriqlari beriladi.

4. Metodik ko'rsatmalar: Mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda o'qituvchi rahbarligida metodik ko'rsatmalar va maslahatlar berib boriladi.

5. Himoya qilishga tayyorlash: Talabalar mustaqil bajargan ishlarini himoya qilishga tayyorlanadi.

PEDAGOGIKA

6. Himoya va baholash: Guruh talabalari va tegishli o'qituvchilar bilan birgalikda mustaqil ishlarning himoyasi tashkil qilinadi va ular baholanadi.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining maxsus kompetentligini rivojlantirish samaradorligi faqat qo'llanilayotgan metodlardan iborat bo'lib qolmay, balki jarayonni qanday tanlash va uni tashkil etish shakllariga ham bevosita bog'liqdir. Bu yo'nalishda muvaffaqiyatga erishish uchun ta'lim jarayonida barcha tarkibiy qismlar o'zaro ta'sir va yaxlitlikni ta'minlaydigan integrativ rolni bajaruvchi tashkiliy shakllar orqali amalga oshirilishi kerak.

Maxsus kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida mustaqil ish eng samarali shakllardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Talabani mustaqil ishi – o'quv jarayonidan tashqari, belgilangan topshiriqlarni mustaqil ravishda izlash, bajarish va tayyorlash jarayonidir. Bu jarayon davomida talaba maxsus bilim, ko'nikma hamda malakalarni o'z kuchi bilan shakllantiradi. Mustaqil ta'lim, ayniqsa, doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish va yangiliklarga moslashish zarurati mavjud bugungi kun pedagoglari uchun muhimdir.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining mustaqil maxsus kompetentligini aniqlash mezonlari

№	Mustaqil maxsus kompetentligi	Mustaqil kasbiy faoliyat yurita olish darajasini aniqlash		
		Yuqori daraja	O'rta daraja	Quyi daraja
1	O'quv materiallarini o'rganishda va mustaqil metodik ish jarayonini tashkil etishda umumiylikdan tipiklikni va xususiylikni ajratib olish kompetensiyasi hamda unga ijodkorona yondashish	O'quv materialining tipik va xususiy xususiyatini oson va tez ajratib oladi. Texnologik jarayonlar va texnik obyektlarni tanlashda o'z bilim, ijodkorligi va kompetensiyasiga tayanadi.	O'qigan materialdagi tipik va xususiy xususiyatlarini ajratishni asosan bajara oladi, bir qancha xatolarga yo'l qo'yadi. Texnologik jarayonlar va texnik obyektlarni tanlashda o'qituvchidan yordam kutadi.	O'quv materialning xususiy xususiyatlarini odatda gapira olmaydi. Texnologik jarayonlar va texnik obyektlarni tanlashda qiyinchiliklarga duch keladi.
2	Mustaqil metodik ish bajarish jarayonida texnologik jarayonlarni va texnik obyektlarni tanlash, o'qish, yozish, chizish, sxemalar tuzish kompetensiyasi va har bir bosqichni ijodiy yondashgan holda amalga oshirish	Texnologik jarayonlarni yaxshi ilg'ay oladi, texnik obyektlarni tanlay biladi, o'qish, yozish sur'ati yuqori, ish bajarish jarayonida mustaqil va ijodiy ravishda tanlash va tahlil qilish kompetensiyasiga ega hisoblanadi.	Texnologik jarayonlar va texnik obyektlarni tanlash hamda o'qish, yozish, turli hisoblashlar sur'ati guruhning ko'pchilik talabalari kabi. Ularda o'zaro aloqadorlik asosida faoliyat yuritish kompetensiyasi mavjud.	Texnologik jarayonlar va texnik obyektlarni tanlash, o'qish, yozish, chizish, hisoblash, kitob bilan ishlash sur'ati nisbatan sustroq, ijodiy fikrlash kompetensiyasi yaxshi rivojlanmagan.
3	Mustaqil fikrlash kompetensiyasi va ijodkorligi	Texnik masalani yechish yo'llarini o'zi mustaqil holda topa oladi. Amaliy faoliyat jarayonida ijodiy yondashgan holda mustaqil elementlarni kiritadi, topshiriqlar va mashqlarni bajarishda ixtirochilik elementlarini, amaliy ish bajarishda maqbul usullarni mustaqil tanlaydi.	O'qituvchi bergan o'quv masalalarini mustaqil bajarishga intiladi, masalalarni yechadi, muammolarni hal etadi, darhol natijani kuzatmaydi, o'xshash masalalarni tuzadi va h.k. amaliy ish bajarishda o'qituvchi ko'rsatmasiga amal qilishga harakat qiladi.	Tayyor yechimlardan foydalanishga intiladi, qiyinchilikka duch kelishi bilan yordam so'raydi, doimiy kuzatuvga muhtoj, hatto o'xshash bo'lgan, masalani ham tuza olmaydi

Talabalarning mustaqil ishi mazmuniga e'tibor qaratish, ularni maxsus kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirish, o'quv jarayonida variativlik va tabaqalanishni qo'llash zarur.

Talabalarning qiziqishlarini inobatga olib, ta'lim muassasasining ichki tuzilmasi tomonidan mustaqil ishlarining bajarilishini nazorat qilish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonni samarali tashkil etish nafaqat o'quvchilar bilimini mustahkamlashga, balki ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi.

XULOSA

Zamonaviy ta'lim jarayonida maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim metodologik asos sifatida tanlanmoqda. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida maxsus kompetensiyalarni shakllantirish uchun o'qitish jarayoni turli o'quv fanlari va faoliyatlar integratsiyasi orqali yaxlitlik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv talabalarning bilimlarini tizimlashtiradi, ijodiy fikrlash va mustaqil ta'lim olish qobiliyatlarini kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNESCO Institute for Statistics. International Standard Classification of Education – ISCED 2011. UNESCO, Montreal, 2012.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. [Httrs://lex.uz/doss/4545884](https://lex.uz/doss/4545884)
3. Jumayeva Gulnora Amirqulov (2024). Ta'limni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati. Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali, 45-son, 1-qism.
4. Ollaberganova R. K. (2024). Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati va nazariy asoslari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, Vol.1, No5.
5. Abdullayeva Q. M. (2006). Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari (Kasb ta'limi – "Servis" yo'nalishi misolida), p.f.n.
6. Karimova N. N. (2018). Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
7. Rajabova S. Yu. (2020). Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining konstruktorlik-texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
8. Fotima Abdurahimovna Umarova (2021). Talabalarga kiyimlarni loyihalash va modellashtirishni o'rgatishda axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalaridan foydalanish orqali ta'lim samaradorligiga erishish. "Центр инновационных технологий" (O'zbekiston), (103).
9. Khojkarimova Gulasal Tadjaliyevna. (2025). DIDACTIC POSSIBILITIES OF DEVELOPING STUDENTS' SPECIAL COMPETENCE THROUGH AUTOMATED SYSTEMS OF CONSTRUCTION AND MODELING OF SEWING ITEMS. CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD, 2(8), 38–41.
10. Xojkarimova Gulasal Tadjaliyevna (2023). Integrativ yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari. Pedagogika.(2023/1)